



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 428 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” ajning asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkijonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari	264
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li	
O‘zbekiston qonunchiligida raqamli transformatsiya jarayonida elektron to‘lov kartalarini soxtalashtirishni jinoyatlashtirish	276
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
Mamlakatimizda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari.....	281
Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li	
Validation of the dutch eating behaviour questionnaire (DEBQ) in a sample of uzbek women.....	285
Khursana Usmanova, Dr Muhammad Bilal, Dilafuz Qo‘chqorova	
Iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini o‘ziga xos jihatlari	295
Nabiyev Bexzod Shavkatovich, Bayboboeva Firuza Nabijonovna	
Davlat qarz siyosatini optimallashtirishda islomiy moliya instrumentlarining qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlari	299
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	
Роль институциональных структур фондового рынка в обеспечении финансовой стабильности.....	305
Камилова Севара Анваровна	
The Impact of Digitalization on the Management System in the Entrepreneurial Environment of Uzbekistan.....	309
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
China’s Investment Strategy in Uzbekistan: Sectoral Trends and Strategic Implications (2013–2024).....	313
Maftuna Nuriddinova	
Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati	319
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Raqamli boshqaruvning afzalliklari va uni rivojlantirish istiqbollari	324
Xolbayeva Marg‘uba Qazoqboyevna	
Korporativ boshqaruvning nazariy asoslari: O‘zbekistonda qo‘llanish imkoniyatlari.....	328
Jumayeva Guzall Sherxon qizi	
Audit organizations in Uzbekistan	332
Razzaqov Jasur Xamraboevich, Yaqubov Matrasul Mavlonberdiyevich, Sabirova Nodira Komil qizi	
Xorijiy investitsiyalarning turlari va xususiyatlari	337
Gofurov Doston Boxromovich	
Mahalliy budjet mablag‘larining samaradorligini oshirishda auditning o‘rni.....	341
Primova Shaxnoza Komiljonovna	
Модели управления государственными финансами в зарубежных странах.....	345
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
O‘zbekistonning sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishi: yashil o‘sish indikatorlari tahlili	352
Hakimov Anvarjon Abdulloyevich	
Innovation management in the education system: practical challenges, international experience, and effective strategies based on the example of Uzbekistan.....	356
Imomov Inomiddin Abdulxamidovich, Egamberdiyev Farhod Botirovich	
Трансформация энергетического комплекса Узбекистана: текущее состояние и перспективы развития	363
Хмель Е.В., Мирджалилова Д.Ш., Дерюгина Е.А., Лозовская Н.А.	



Improving the efficiency of personnel management and optimizing labor costs in Sam Glass LLC.....	368
Musayeva Shoirazimovna, Agzamov Avazkhon Talgatovich	
Interactive design and museum management: enhancing guided tours through IOT and virtual solutions.....	374
Ibrokhimova Aziza Abbasovna	
Hududlar investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	379
Imomova Kamola Novfal qizi	
"Innovatsion usulda baliq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari (Sirdaryo tumani misolida)"	385
Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta o'g'li	
Bank filial tarmoqlari samaradorligini baholashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekiston banklari amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	392
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Zamonaviy iqtisodiyotda davlat xaridlarinin elektron savdolarining o'rni	398
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Реализация концепции развития рынка зеленой экономики в сфере экономической безопасности Республики Узбекистан.....	401
Юнусова Римма Рахманбердиевна	
Tijorat banklaridan "foyda" solig'ini undirishning bugungi holati.....	408
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
O'zbekiston oziq-ovqat sanoatini iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari	415
Abasova Gulirano Rahmatullo qizi	
Xorijiy tajribalar asosida ekologik tadbirkorlikning innovatsion va investitsion yo'nalishlarini tashkil etish	419
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
Sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirish xususiyatlari	424
Raxmonova Feruza Musakulovna	



SANOAT KORXONALARI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI

Raxmonova Feruza Musakulovna

SamDAQU "Biznesni boshqarish" kafedrası katta o'qituvchisi

Email: feruza_r_m@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasining zaruriyati, o'ziga xos xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari va uni amalga oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirish yuzasidan takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mintaqa, sanoat, sanoat korxonalari, jozibadorlik, marketing, marketing strategiyasi.

Abstract: This article discusses the need for a marketing strategy to increase the attractiveness of industrial enterprises, its specific features, existing opportunities and issues of its implementation. Also, proposals are made on the implementation of a marketing strategy to increase the attractiveness of industrial enterprises.

Key words: region, industry, industrial enterprises, attractiveness, marketing, marketing strategy.

Аннотация: В статье рассматривается необходимость разработки маркетинговой стратегии для повышения привлекательности промышленных предприятий, её особенности, существующие возможности и проблемы её реализации. Даны предложения по реализации маркетинговой стратегии для повышения привлекательности промышленных предприятий.

Ключевые слова: регион, промышленность, промышленные предприятия, привлекательность, маркетинг, маркетинговая стратегия.

KIRISH

Sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasi muhim o'rin tutadi. U korxonaning bozordagi o'rnini mustahkamlash, mijozlar ehtiyojlariga mos mahsulot va xizmatlarni taklif etish, raqobatchilardan ajralib turish hamda brend imijini yaxshilash vositasi sifatida qo'llanadi. Marketing strategiyasini to'g'ri ishlab chiqish va samarali amalga oshirish zarur. Shu orqali korxona yangi mijozlarni jalb qiladi, mavjud mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni rivojlantiradi, innovatsion yondashuvlarni joriy etadi va daromadni oshirishga erishadi. Shuning uchun marketing strategiyasi sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi va bozordagi jozibadorligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Ushbu strategiya korxonalarga bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlash, mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalar o'rnatish va mahsulotlarni samarali targ'ib etish imkonini beradi. Biroq sanoat sohasida mahsulotlarning murakkabligi va yuqori texnik talablarga javob berishi sababli marketing strategiyasi mahsulot sifatini oshirish, innovatsiyalarni joriy qilish hamda mijoz ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish asosida shakllantirilishi lozim. Shu bois, sanoat korxonalari uchun bozordagi jozibadorlik marketing strategiyasining samarali amalga oshirilishiga bevosita bog'liqdir. Demak, marketing strategiyasi korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytirish, mijozlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish va mahsulot hamda xizmatlarni samarali taqdim etishda zaruriy omil bo'lib xizmat qiladi.

Sanoat sohasida mahsulotlar ko'pincha texnik jihatdan murakkab bo'ladi va yirik hajmlarda ishlab chiqariladi. Bunday holatda marketing strategiyasi aniq, tizimli va moslashuvchan bo'lishi talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, tadqiqotlarga ko'ra, strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirish har qanday biznesni boshqarishning ajralmas unsurlari hisoblanadi [1].

Boshqa tadqiqotlarda korxonalar rivojlanishi uchun marketing strategiyalari va mexanizmlarining zarurligi asoslab beriladi. Ya'ni, yangi bozorlarga chiqish uchun korxona yangi marketing strategiyalari va mexanizmlaridan foydalanishi lozimligi ta'kidlanadi [2].



Yana bir tadqiqotda sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirish vositasi sifatida HRM (inson resurslarini boshqarish) tizimini rivojlantirish muhim omil sifatida ko'riladi. Aniqlik qilib aytganda, mamlakatimiz sanoat korxonalarida marketing faoliyatini samaradorligini oshirish uchun HRM tizimini rivojlantirish zarur omil bo'lib qaraladi [3].

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda korxonaning marketing tadqiqotlarini amalga oshirish bevosita marketing strategiyasi asosida olib borilishi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, korxona marketing tadqiqotlari natijasida qabul qilingan strategiyaga amal qiladi va uni bozor talablariga mos ravishda doimiy ravishda moslashtirib boradi [4].

Yana bir tadqiqotlarda sanoat korxonalarining imkoniyatlari bevosita marketing strategiyasini shakllantirish orqali yuzaga chiqishi asoslanadi. Unga ko'ra, strategiya korxona imkoniyatlaridan optimal foydalanishga hamda kompaniya faoliyatida samaradorlikni pasaytirishi mumkin bo'lgan noto'g'ri qarorlarning oldini olishga qaratilishi lozim [5].

Ulardan tashqari, boshqa tadqiqotlarda sanoat korxonalarining taraqqiyoti, avvalo, marketing strategiyasining mavjudligi bilan belgilanadi. Bunday strategiyaning mavjudligi korxonaning uzoq muddatli istiqbolga yo'nalganligi, sheriklar va mijozlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga intilishi hamda niyatlarining jiddiyligidan dalolat beradi [6].

Boshqa manbalarga ko'ra, sanoat marketingining evolyutsiyasi xaridorlar va ta'minot zanjirlarining dinamik harakati bilan chambarchas bog'liq. Elektron tijorat va onlayn xaridlarning o'sishi sanoat xaridorlarining tadqiqotlariga va sotib olish bo'yicha qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda [7]. Shunga ko'ra, internetda keng ma'lumot mavjudligi xaridorlarni yanada xabardor qilmoqda va ular o'ziga xos ehtiyojlari va talablariga mos keladigan yechimlarni izlashmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida qo'llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirish jarayonida kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya hamda deduksiya usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Strategiyani amalga oshirish jarayonida bozordagi talab va raqobat sharoitlari doimiy ravishda tahlil qilinib borilishi kerak. Bu esa korxonaga o'z mahsulotlarini mijozlar ehtiyojlariga moslashtirish, narx siyosatini to'g'ri belgilash va samarali taqsimot tizimini yo'lga qo'yish imkonini beradi. Shu bilan birga, innovatsion yechimlar va raqamli marketing vositalaridan foydalanish sanoat korxonasi jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Sanoat korxonasi jozibadorligini oshirish uchun bozorni doimiy kuzatib borish, raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish va mijozlarga individual yondashuv qo'llash zarur. Shuningdek, samarali narx siyosati va taqsimot tizimini yaratish, texnik xizmat ko'rsatish va sotishdan keyingi qo'llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish lozim. Raqamli marketing vositalari va sanoat ko'rgazmalari orqali reklama faoliyatini kengaytirish va brendni mustahkamlash korxonaning bozordagi imidjini yaxshilaydi. Bu borada sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasining samarali amalga oshirilishi bevosita korxonaning barqaror rivojlanishi va raqobatda muvaffaqiyat qozonishi uchun qo'llaniladi.

Sanoat korxonalarida marketing strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish korxonaning bozordagi o'rnini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Strategiyani to'g'ri yo'lga qo'yish uchun bir nechta quyidagi asosiy usullar samarali qo'llanilishi zarur:

birinchidan, bozordagi talab va mijoz ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish, segmentatsiya qilish orqali aniq maqsadli auditoriyani belgilash muhimdir. Bu esa korxonaga o'z mahsulot va xizmatlarini aynan mijozlar istagiga moslashtirish imkonini beradi.

ikkinchidan, mahsulotni doimiy ravishda takomillashtirib borish va innovatsiyalarni joriy qilish orqali raqobatchilardan ajralib turish mumkin. Narx siyosatini moslashtirish, raqobatbardosh va mijozlar uchun maqbul narxlarni belgilash ham marketing strategiyasining muhim qismidir. Shuningdek, samarali taqsimot va tarqatish tizimini tashkil etish, mahsulotlarni o'z vaqtida va sifatli yetkazib berishni ta'minlash korxona obro'sini oshiradi.

Shu bilan birga, sanoat korxonasi ichki resurslarini, ya'ni xodimlar malakasi va jamoaviy ish faoliyatini yaxshilash, samarali boshqaruv tizimini yaratish marketing strategiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shunga asosan, sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirishning afzalliklari quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi:

- bozordagi raqobatbardoshlikni oshirish. Marketing strategiyasi orqali korxona o'z mahsulotlari va xizmatlarini raqobatchilarnikidan ajratib turuvchi ustunliklar yaratadi. Bu esa bozorda mustahkam o'rin egallashga imkon beradi.



- mijozlar ehtiyojlariga aniq moslashish. Bozor va mijoz tahliliga asoslangan strategiya xaridorlarning ehtiyojlari va afzalliklariga mos mahsulot hamda xizmatlarni taklif qilishni ta'minlaydi.

- sotuv hajmini va daromadni oshirish. To'g'ri yo'naltirilgan marketing tadbirlari orqali yangi mijozlar jalb qilinadi va mavjud mijozlar bilan aloqalar mustahkamlanadi. Bu esa korxona daromadining o'sishiga olib keladi.

- brend imidjini mustahkamlash. Strategik yondashuv asosida ishlab chiqilgan marketing tadbirlari korxona obro'sini oshirib, uni ishonchli hamkor sifatida namoyon etadi.

- innovatsion rivojlanishga turtki bo'lish. Marketing strategiyasi yangi mahsulotlar yaratish va mavjudlarini takomillashtirishga ehtiyoj tug'dirib, korxonalar innovatsion faoliyatini faollashtiradi.

- samarali resurs taqsimotini ta'minlash. Yaxshi rejalashtirilgan strategiya orqali reklama, ishlab chiqarish, taqsimot va xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan resurslar aniq va tejamkor tarzda ishlatiladi.

- yangi bozor segmentlariga chiqish. Marketing strategiyasi yangi geografik hududlar yoki mijoz guruhlariga chiqishni rejalashtirishga imkon berib, korxona o'sishini tezlashtiradi.

- mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish. Marketing orqali yaratilgan ishonch, individual yondashuv va sifatli xizmat ko'rsatish mijozlar sadoqatini oshiradi.

- krizis holatlarida tezkor moslashuvni ta'minlash. Yaxshi strategiya marketing faoliyatini moslashtirishga va bozor o'zgarishlariga tezda javob qaytarishga imkon beradi.

Darhaqiqat, sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirish yo'nalishlari quyidagi unsurlardan iborat bo'ladi.

1. Bozorni chuqur tahlil qilish:

- bozor talabini, raqobatchilar faoliyatini va mijozlarning ehtiyojlarini muntazam o'rganish;
- bozor segmentlarini aniqlab, har bir segmentga mos mahsulot va xizmatlarni taklif etish.

2. Mahsulotni innovatsion rivojlantirish:

- texnologik yangiliklar va innovatsiyalarni joriy qilish orqali mahsulot sifatini va funksionalligini oshirish;
- mijozlarning o'ziga xos talablarini qondirish uchun mahsulotlarni moslashtirish.

3. Narx siyosatini moslashtirish:

- raqobatchilar narxlarini tahlil qilib, mos va raqobatbardosh narxlarni belgilash;
- yirik hajmdagi xaridlar uchun chegirmalar va imtiyozli shartlarni taklif etish.

4. Samarali tarqatish tizimini tashkil etish:

- mahsulotlarni o'z vaqtida va sifatli yetkazib berishni ta'minlash;
- dilerlik va distribyutorlik tarmoqlarini kengaytirish, hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

5. Mijozlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish:

- mijozlar ehtiyojlari va fikrlarini muntazam kuzatib borish;
- sotishdan keyingi xizmatlarni (texnik qo'llab-quvvatlash va servis markazlari) rivojlantirish.

6. Raqamli marketing vositalaridan foydalanish:

- korxona veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlar va B2B platformalarda faol ishlash;
- onlayn reklama va elektron pochta marketingi yordamida mijozlarni jalb qilish.

7. Brendni rivojlantirish va targ'ib qilish:

- korxona imidjini yaxshilash uchun sanoat ko'rgazmalari, konferensiyalar va biznes forumlarda faol ishtirok etish;

- mahsulot va xizmatlar haqida ma'lumotlarni keng targ'ib qilish.

8. Ichki menejment va marketing jamoasini rivojlantirish:

- marketing bo'limining malaka va bilimlarini doimiy oshirib borish;
- xodimlar o'rtasida samarali hamkorlik va axborot almashinuvini ta'minlash.

Mazkur usullarni to'g'ri va birgalikda qo'llash sanoat korxonalari marketing strategiyasining samarali qo'llanilishi va ularning bozordagi jozibadorligini oshirishni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalari marketing strategiyasini amalga oshirish usullari bir-birini to'ldiruvchi va muvofiqlashtirilgan choralar majmuasi sifatida ularning samarali tatbiqi korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Marketing strategiyasining muvaffaqiyatli qo'llanilishi natijasida sanoat korxonalari bozordagi o'z o'rnini mustahkamlaydi, yangi mijozlarni jalb etadi, mavjud mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantiradi va daromad hajmini oshiradi. Shu bois, samarali marketing strategiyasi sanoat korxonalari barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Bunday yondashuv reklama, ommaviy axborot vositalari, raqamli marketing vositalari va mijozlar bilan uzluksiz aloqalarni rivojlantirish orqali korxona hamda uning mahsulotlari haqida keng qamrovli ma'lumotni targ'ib qilish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ziyayeva M.M., Minarova M.X., Fayzullayev Sh.Sh., Sobirov A.A. Xalqaro marketing strategiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. - 7 b.
2. Tursunov A.B., Boyjigitov S.K. Sanoat korxonalarining marketing faoliyatini takomillashtirishda innovatsion loyihalarning xususiyatlari. // International scientific and practical conference "Integration of innovation and investment processes in science and education, production and economy: problems and solutions", April 24, 2025. - 227 b.
3. Tojimatov I. Sanoat korxonalari marketing faoliyatining samaradorligini oshirishda hrm tizimini qo'llanilishining ahamiyati. // Development of Pedagogical Technologies in Modern Sciences, 2(12), 2023. 28-31 b.
4. Артёмов Н.В. Управление формированием и реализацией эффективной системы маркетинга инновационной продукции промышленных предприятий. // Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Орел: «Орловский государственный аграрный университет», 2014. - с. 14.
5. Чжили Я. Маркетинговая стратегия развития индустриально-технологического парка «Великий камень». Диссертация. - Минск, 2019. - с. 23.
6. Кравченко Л.А., Кузнецов П.Д. Маркетинговая стратегия как инструмент повышения эффективности деятельности предприятия. // Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И.Вернадского. Экономика и управление, Том2 (68), 2016, №4. - с. 63.
7. <https://thebigmarketing.com/industrial-marketing-strategy/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>